

**MAKTABGACHA TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING
O'RNI**

Ilmiy rahbar: Zubaydova N.

Samarqand Davlat Chet Tilla

Xidirova Mushtariy Xasan qizi

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti talabasi

Samarqand, Uzbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagiga bolalarga ingiliz tilini o'rgatish usli, hamda ingiliz tili dunyo tiliga aylanib borayotgani uchun bolalar osonroq ingiliz tilini o'zlashtirib o'rganadi, shu boisdan uni maktabgacha ya'ni bog'cha yoshidan boshlash kerak. Qo'shimcha qilganda ingiliz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor. Mazkur maqola shu haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, interfaol turlari, har xil o'yin texnikasi, rivojlanish.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirmadi. Yoshlar orasida xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunga kelib maktabgacha ta'limga e'tibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Yoshlarimiz hozirgi kunda zamonaviy texnikadan foydalanib kelajakda yetuk kadr bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Shunday ekan chet tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'lim ya'ni bog'cha yoshi, chet tilini o'rganishda juda qulay vaqt hisoblanadi. Bu yoshdagiga bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi va ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning sirlarini tushunishga qiziqishadi. Shu sababli xorijiy tilni o'rgatish shu davrdan boshlanishi maqsadga muvofiq deb

hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30- sentabrdagi "Maktabgacha ta'lismizni boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risidagi" [1]. qarori, hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismizni vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" [2]. farmonlari Respublikamizda maktabgacha ta'lismizni muassasalariga (MTM) qaratilgan katta e'tiborlaridan biri bo'ldi.

Hozirgi vaqtida bolalarga ingiliz tilini o'rgatish erta yoshdan bo'lganligi sababli bolalarni keyingi ta'lismizni bosqichlarida qiyinchiliklarsiz davom ettirishga imkoniyat yaratib beradi .Chunki kelajakda sifatli, bilimli kadrlarni yetishtirib chiqish maqsadida, farzandlarimizga ayni bugundan chet tilini ya'ni ingliz tilini o'rgatish juda muhim deb hisoblanadi.

Ko'plab pedagog va tarbiyachilarining fikriga ko'ra yosh bolalarda ayni ertak, hikoya hamda o'yinlar orqali yangi tilni o'rganish oson kechadi. Ya'ni bola kun davomida qaysi tilni ko'proq eshitsa atrofdagilar ayni foydalangan tilni ayni harakatlar orqali tez anglaydi va o'rganadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lismizni Vazirligining 2025-yilgacha strategiyasida bog'chalarda ingliz tilini mukammal hamda tez o'rgatish maqsadida interfaol o'yin turlarini shga tushurish hamda bog'chalarda ingliz tili o'qituvchilarini bilimini oshirish ustuvor vazifa qilib qo'yilgan [3:3]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot kamligi sababli ularga harakat orqali ya'ni oyinlar bilan ingliz tilini o'rgatish maqsadga muvofiq. Qoshimcha qilganda, bolalarga har xil yo'l orqali, masalan; o'yin va xursandchilik tarzida dars olib borilsa ularning diqqatini osonroq va yaxshiroq darsga qaratish imkoniyatini beradi. Asosan maktabgacha yoshdagi bolalar darslarda zerikib qolmasligi kerak, chunki bola zerika boshlasa til o'rganishga bo'lgan qiziqishi kamaya boradi va o'rganishni xoxlamay qolishi mumkin. Dars jarayonida ham har xil o'yin va musobaqalar tashkillashtirish kerak. Chunki o'yin bolalarning eng sevimli mashg'ulotidir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim yoshidan ingliz tilini o'rgatish maqsadga muvofiq, zero “Til bilgan –el biladi” deganlaridek bolalarga til o'rganishga qiziqish uyg'otish kerak. Quvonarlisi shundaki yurtimizda til o'rgatishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shu sababli erta yoshdan chet tilini o'rganishga barcha sharoitlar mavjud. Agar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim salohiyatlari eng samarali tarzda rivojlanib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, bolaligidanoq boshlansa bolalarda ingliz tilini o'rganish yanada muvaffaqiyatli bo'ladi deb hisoblanadi. Bular albatta maktabgacha ta'limda xorijiy tilning o'rni muhimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari tog'risidagi" PF-5198-sonli qaror.
2. 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashlik etish to'g'risidagi" PQ-3305- sunlight qaror.
3. U.Usmonova A.Qodiriy nomidagi JDPI o'qituvchisi.
4. .Mahmudova.G.B. The Development of Scientific Theories of Metaphor Translation from the Cultural Point of View. International Journal on Integrated Education. 329-332.
5. Zubaydova.N.N. The teaching of English for specific purposes.